Kriminologiya fan sifatida XX asrning 60-yillaridan boshlab jadal rivojlana boshladi. Dastlab oliy o'quv yurtlari dasturlarida o'quv predmeti sifatida ta'sis etilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan uning tadqiqotlari fan tadqiqotlari darajasiga ko'tarildi. Shuning uchun ham kriminologiyaning aynan shu ikki yo'nalishdagi shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga xolisona yondashish va baho berish lozim.

Kriminologiya fani mustaqil o'quv predmeti sifatida dastlab sobiq Ittifoq davrida, 1963/1964-o'quv yilidan Moskva davlat universitetining yuridik fakultetida o'qitila boshladi. Ushbu o'quv predmeti uchun bo'ladigan mashg'ulotlarga dastlab 40 soat ajratilgan. 1964/1965 o'quv yilidan boshlab kriminologiya sobiq Ittifoq hududida mavjud bo'lgan oliy o'quv yurtlari yuridik fakultetlarida, jumladan, mamlakatimizda ham o'qitila boshladi. Kriminologiya faniga bo'lgan ehtiyojning oshib borishi natijasida dars soatlari ham ortgan.

Keyinchalik kriminologiya fanining nomlanishi va mazmuni borasida bir qator o'zgarishlar kuzatildi. 1974-yilda mazkur fan Kriminologiya va ichki ishlar organlarining profilaktika faoliyatini boshqarish deb nomlangan bo'lsa, 1975/1976-o'quv yilidan Huquqbuzarliklarning oldini olishni tashkil etish deb nomlandi (ushbu o'quv predmetining bir bo'limi sifatida kriminologiyaning fan sifatidagi asosiy muammolari yoritila boshladi).

1978/1979-oʻquv yilidan boshlab Huquqbuzarliklarning oldini olish deb nomlandi [8].

Hozirda deyarli barcha rivojlangan, shuningdek, rivojlanayotgan chet el davlatlarining yuridik mutaxassisligi yoʻnalishidagi oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlarida kriminologiya alohida mustaqil fan sifatida oʻqitiladi.

Mamlakatimizda ham kriminologiya faniga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, kriminologiya fani alohida mustaqil fan sifatida Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Toshkent davlat yuridik universiteti, Jamoat xavfsizligi universiteti, Oʻzbekiston Milliy universiteti, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida oʻqitib kelinmoqda.

Ichki ishlar vazirligi akademiyasida kriminologiya fani Kriminologiya kafedrasida 1977-yildan boshlab oʻqitiladi.

1994-yilda Ichki ishlar vazirligi akademiyasida kriminologiya faniga jami 66 soat (30 soat ma'ruza, 28 soat seminar, 8 soat amaliy), 2017-yilda 72 soat (34 soat ma'ruza, 26 soat seminar, 12 soat amaliy), 2023-yilda esa 56 soat (28 soat ma'ruza, 28 soat seminar) oʻquv yuklamasi ajratilgan.

Jinoyatchilik, undan jabrlangan shaxs bilan bogʻliq muammolar, jinoyat sodir etilishida jabrlanuvchining oʻrni va rolini ilmiy oʻrganish uchun 2017/2018-oʻquv yilidan boshlab Ichki ishlar vazirligi akademiyasida viktimologiya fani boʻyicha darslar oʻtila boshladi. Viktimologiya alohida ijtimoiy-huquqiy fan sifatida kriminologiya fanidan ajralib chiqdi va 36 soat (12 soat ma'ruza, 12 soat seminar, 12 soat amaliy) oʻquv yuklamasi sifatida oʻqitila boshladi. IIV akademiyasi Kriminologiya kafedrasi professori F.M. Muhiddinovning mas'ul muharrirligi ostida mualliflar jamoasi tomonidan mamlakatimizda ilk bor 2021-yilda "Viktimologiya" darsligi [8] oʻzbek tilida (lotin va kirill alifbosida) chop etildi.

Darslikda jinoyatdan jabrlanganlar haqidagi ta'limotning shakllanishi va rivojlanishi, jabrlanuvchining shaxsi, viktimlik va uning turlari, jabrlanuvchi va jinoyatchi oʻrtasidagi munosabat hamda ularning oʻzaro aloqadorligi, jabrlanuvchi shaxsining jinoyatning sabab va sharoitlari bilan bogʻliqligi, jabrlanuvchining ayrim jinoyatlarning sodir etilishida tutgan oʻrni hamda jinoiy vaziyatning yuzaga kelishi va rivojlanishiga turtki beruvchi xulq-atvor sifatlari, jabrlanuvchining jinoyat sodir etishga turtki beruvchi, imkoniyat yaratuvchi, toʻsqinlik qiluvchi, jinoiy qilmish sodir etilishidan oldin, sodir etilishi vaqtida va sodir etilganidan keyingi xulq-atvori, jinoyatlarning latent boʻlib qolishida jabrlanuvchilarning tutgan oʻrni, jinoyatlar viktimologik profilaktikasi tushunchasi, maqsadi, vazifalari va prinsiplari, jinoyatlar viktimologik profilaktikasi obyekti, subyektlari, shakllari, usullari va chora-tadbirlari, jinoyatlar viktimologik profilaktikasining konseptual, ilmiy-nazariy va huquqiy asoslari, alohida turdagi jinoyatlardan jabrlangan shaxslarning viktimologik tavsifi kabi masalalar yoritilgan.

1980-yilda Toshkent davlat universitetining yuridik fakultetida kriminologiya fani jami 12 soat (6 soat ma'ruza, 6 soat seminar) oʻquv yuklamasi sifatida oʻqitilgan. Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan soʻng, 1991-yilda Toshkent davlat yuridik institutida kriminologiya fani jami 20 soat (10 soat ma'ruza, 10 soat seminar) oʻquv yuklamasi sifatida oʻqitilgan. 2013-yilda, Toshkent davlat yuridik institutiga universitet maqomi berilganidan soʻng kriminologiya fani maxsus fan sifatida Jinoiy odil sudlov fakultetida jami 55 soat (20 soat ma'ruza, 35 soat seminar) oʻquv yuklamasi sifatida oʻqitib kelinmoqda.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti ochilishi bilan (1976-y.) Tarix-geografiya fakulteti negizida 1977-yil Huquqshunoslik boʻlimi tashkil etilgan va ushbu boʻlimda kriminologiya fani 1981-yildan boshlab oʻqitila boshlagan. 1993-yilda Tarix-geografiya fakultetidan Huquqshunoslik boʻlimi alohida ajralib, yuridik fakultet tashkil etildi. Bugungi kunda Qoraqalpoq davlat uni-

versiteti yuridik fakultetida kriminologiya fani jami 60 soat (28 soat ma'ruza, 32 soat seminar) o'quv yuklamasi sifatida o'qitilmoqda.

2018-yildan Jamoat xavfsizligi universitetida kriminologiya fani jami 72 soat (36 soat ma'ruza, 36 soat seminar) o'quv yuklamasi sifatida o'qitilgan. 2021-yildan boshlab 76 soat o'quv yuklamasi sifatida o'qitilmoqda [9].

Yuqoridagilardan mamlakatimizning yuridik mutaxassislikka ixtisoslashgan yetuk oliy ta'lim muassasalarida kriminologiya fani alohida mustaqil fan sifatida o'qitilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa ushbu fanning jinoyatchilikka qarshi kurashishda ahamiyati muhimligidan dalolat beradi.

Kriminologiya fanining rivojlanishi yetuk ilmiy-pedagogik mutaxassislar tayyorlashni ham taqozo etadi. Jumladan, o'tgan yillar davomida ushbu yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirildi, xususan, zarur darslik va o'quv qo'llanmalar yaratildi. O'zbekistonda birinchi marta Y. Karaketov va M. Usmonaliyevlar tomonidan o'zbek tilida 13 bosma taboqdan iborat "Jinoyatchilikka qarshi kurashning kriminologik choralari" nomli o'quv qo'llanma nashr qilindi [10]. Shuningdek, S. Zaripov va I. Ismoilovlar tomonidan o'zbek tilida ilk "Kriminologiya" darsligi nashr qilingan [11]. Shundan so'ng mualliflar jamoasi tomonidan turli yillarda bir qancha kriminologiyaga oid darsliklar nashr qilindi. 2015-yilda IIV Akademiyasida I. Ismailov, Q.R. Abdurasulova va I.Y. Fazilovlar mullifligida "Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun" va "Kriminologiya. Maxsus qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun" darsliklari chop etildi.

Alohida yakka mualliflikdagi "Kriminologiya" darsligi ilk bor 2008-yilda yuridik fanlar doktori, professor Q.R. Abdurasulova muallifligida chop etilgan. 2023-yilda IIV akademiyasi Kriminologiya kafedrasida professor Q.R. Abdurasulovaning mas'ul muharrirligi ostida mualliflar jamoasi tomonidan "Kriminologiya" darsligi lotin va kirill alifbosida [3] tayyorlanib, chop etildi.

Yuqoridagilardan mamlakatimizda kriminologiya fani rivojlanishiga Z.S. Zaripov, Y. Karaketov, M. Usmonaliyev, I. Ismoilov, M.X. Rustamboyev, Q.R. Abdurasulovalar katta hissa qo'shgan deyish mumkin.

Kriminologiya rasman Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat-ijroiya huquqi (12.00.08) ixtisosligi kabi ilmiy tadqiqot olib boriladigan fanlar ro'yxatiga kiritilgan. Shu bois mamlakatimizda ushbu yo'nalishda ko'plab fan nomzodlari, falsafa (PhD) va fan doktorlari (DSc) tayyorlanmoqda.

Kriminologiya fanining rivojlanish istiqbollari jamiyatda ro'y beradigan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar asosida kechishini aslo nazardan chetda qoldirmaslik zarur. Zotan, kriminologiya fan sifatida e'tirof etilgan dastlabki bosqichida va hozirda jamiyat hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar bir-biridan farq qilishini e'tiborga olish lozim.

Kriminologik ijtimoiy hodisalarga doir mavjud bilimlarni bugungi kun jinoyatchilikka qarshi kurash nazariyasi va amaliyotining ehtiyojlaridan kelib chiqib, yangilash, mavjud muammolarning nazariy va metodologik jihatdan asoslangan yechimlari va jinoyatlar profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha zarur tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish kriminologiya fanining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Olimlar kriminologiyaning vazifalarini bir nechta guruhga ajratadi. Xususan, A.I. Dolgova kriminologiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni qayd etadi:

1) jinoyatchilik profilaktikasini yanada jadallashtirish maqsadida kriminologik hodisalarni ilmiy tushuntirish va prognoz qilish;

2) mavjud konsepsiyalar va ishlanma (g'oya)larni real tahlil qilish, ulardagi e'tiborli jihatlarni saqlab qolish, shuningdek, qotib qolgan va haqiqatga zid holatlardan voz kechish; jinoyatchilik va uning tendensiyalarini shakllantirish; kriminogen determinantlar tizimini to'liq aniqlash;

3) kriminologik bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, kriminologik nuqtayi nazardan asoslangan va jinoyatchilikdagi oʻzgarishlarga taʼsiridan kelib chiqib, normativ aktlarni ekspertizadan oʻtkazish, ilmiy asoslangan tavsiyalarni jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotiga joriy etish;

4) jinoyatchilikka qarshi kurashish boʻyicha xalqaro tajribani oʻrganish va uni amaliyotga tatbiq etish;

5) jinoyatlarning oʻta xavfli turlari (iqtisodiy jinoyatchilik, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, zoʻrlik ishlatib sodir etilgan ogʻir jinoyatlar, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, korrupsiya)ni oʻrganish va ularga qarshi kurashishning samarali choralarini ishlab chiqish [12].

V.E. Eminov kriminologiyaning vazifalarini quyidagi guruhlarga ajratgan:

1) oʻrganish vazifasi (jinoyatchilikning mavjud boʻlishi va rivojlanishining qonuniyatlari, jinoyatchi shaxsi va turli jinoyatlarning sodir etilishi mexanizmlari, ijtimoiy oʻzgarishlarni hisobga olgan holda, jinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyasini oʻrganish);

2) prognoz qilish;

3) aholini xabardor qilish (bilimini oshirish).

N.F. Kuznetsova kriminologiya fanining predmeti va tabiatidan kelib chiqib, uning quyidagi vazifalarini koʻrsatgan:

1) tahliliy (jinoyatchilik, uning umumiy holati va jinoyatlar turlari, jinoyatchi shaxsi, jinoyatchilikning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlar, oldini olish tizimi va samaradorligini tadqiq etish);

2) prognoz qilish (kriminologik hodisalarning rivojlanish ehtimoli haqida fikrlar bildirish);

3) amaliy (kriminologik tavsiyalarni qonun ijodkorligi va uni qoʻllash amaliyotiga tatbiq etish);

4) xalqaro (BMT, Interpol va boshqa tashkilotlar yoʻnalishida jinoyatchilikka qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish).

Yuqorida keltirilgan kriminologiya fanining vazifalarini tizimlashtirish asosida jamiyat rivojining hozirgi bosqichida uning quyidagi vazifalarini qayd etish lozim:

a) jinoyatchilik haqidagi bilimlarni boyitish uchun uning obyektiv va haqiqiy hajmi (holati), bunda oʻtmish va hozirgi vaqtdagi jinoyatchilik dinamikasi, darajasi, tuzilishiga oid bilimlarga ega boʻlish;

b) jinoyatchilik turlariga qarshi kurashishni differensiatsiya qilish uchun ularni kriminologik tadqiq etish;

d) jinoyatchilik sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni ilmiy nuqtayi nazardan oʻrganish, ularni bartaraf etish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish;

e) jinoyatchi shaxsi va muayyan jinoyatning sodir etilish mexanizmini oʻrganish, turli jinoyatlarni klassifikatsiyalash va jinoyatchi shaxslarni tiplarga ajratish;

f) jinoyatchilikning oldini olish hamda unga qarshi kurashish vositalari va yoʻnalishlarini aniqlash;

g) muayyan hududlardagi jinoyatchilikka ilmiy tashxis qoʻyish;

h) xalqaro va xorijiy davlatlar tajribasini oʻrganish hamda ularning yutuqlaridan foydalanish.

Har qanday fan singari kriminologiya ham amaliyotning aniq tavsiyalar, qulay axborotlar bilan taʼminlanishiga xizmat qiladi.

Bu borada asosiy eʼtibor yuqori malakali, bilimdon va oʻz ishini sevadigan, jinoyatlar va jinoyatchi shaxsiga differensiatsiya nuqtayi nazaridan yondashadigan kadrlar tayyorlashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Shulardan kelib chiqib, kriminologiya fani quyidagi vazifalarni oʻz oldiga qoʻyadi:

– jamiyatda umumiy jinoyatchilik, uning alohida turlari, muayyan jinoyatning mavjud boʻlishi, sodir etilishi va oʻsib borishining sabablari hamda uni bartaraf etish boʻyicha zarur ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;

– jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyoti ehtiyojlaridan kelib chiqib, chuqur ilmiy

xulosalarga tayangan holda jinoyatlar profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha zarur tavsiyalar berish;

– jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotini jinoyatlar profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha zarur tavsiyalar bilan ta’minlash;

– xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganib, uni jinoyatlar profilaktikasida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berish;

– jinoyatchilikni prognoz qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashishni rejalashtirish;

– maxsus ilmiy metodlar yordamida kriminologiyaga taalluqli hodisalarni o‘rganish, ularga doir mavjud bilimlarni bugungi kun jinoyatchilikka qarshi kurashish nazariyasi va amaliyoti ehtiyojlaridan kelib chiqib yangilash;

– jinoyatlar profilaktikasini takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish.

Muxtasar qilib aytganda, kriminologiya fanining asosiy vazifasi kriminologik ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy hodisalarga doir mavjud bilimlarni bugungi kun jinoyatchilikka qarshi kurashish nazariyasi va amaliyoti ehtiyojlaridan kelib chiqib yangilash, mavjud muammolarning nazariy va metodologik jihatdan asoslangan yechimlari va jinoyatlar profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha zarur tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishdir.

Ushbu og‘ir, sharafli vazifalarni bajarishda kriminologiya o‘zining ilmiy asoslangan tavsiyalarini yaratadi. Mazkur tavsiyalar esa jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil etishda zarur manba hisoblanadi.

Shuni unutmaslik zarurki, kriminologiya fani jinoyatlar profilaktikasiga doir samarali ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar yaratishi juda muhim. Chunki har qanday fan singari kriminologiya ham ilmiy-nazariy jihatdan boyitib borilmasa, jinoyatchilikka qarshi kurashishda zarur vazifalarni bajara olishga qodir fan sifatida rivojlana olmaydi. Bu borada nazariya amaliyotning ko‘zi ekanligini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Kriminologiya fanining jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotidagi ahamiyati ortib bormoqda. Uning ilmiy tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan ilg‘or tajribalar jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida muhim qarorlarga kelish imkonini beradi.

Kriminologiya fani o‘zining vazifalarini quyidagi asosiy funksiyalari orqali amalga oshiradi:

1) *yig‘ish funksiyasi* – tadqiqotlar olib borish orqali jinoyatchilik bilan bog‘liq u yoki bu jarayonning qanday kechayotganligi va qanday ro‘y berayotganligi xususida zarur kriminologik axborotlar yig‘ishni nazarda tutadi;

2) *ta’riflash funksiyasi* – olingan empirik axborotlarni tahlil qilish, guruhlarga ajratish va umumlashtirish asosida kriminologiya predmetiga kiruvchi jarayonlarni yoritishni nazarda tutadi. Bunda u yoki bu holatning qanday ro‘y berganligi ochib beriladi va mavjud voqelik xususida to‘plangan ma’lumotlar nazariy jihatdan ma’lum bir tartibda o‘rganiladi. Shuningdek, kriminologik voqelikka daxldor ijtimoiy hodisalarni o‘rganish asosida o‘ziga xos tushuncha va nazariy konsepsiyalar yaratiladi;

3) *prognoz qilish funksiyasi* – bunda u yoki bu jarayonning qanday kechishi va shu asosda kelgusida yuzaga keladigan oqibatlar, umuman olganda, o‘rganilayotgan jarayonning qay tarzda rivojlanishi mumkinligi oldindan ilmiy bashorat qilinadi. Kriminologiya kriminologik ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa va jarayonlar yo‘nalishi, kelajakdagi o‘zgarishlarni o‘rganib, ularning keyingi holati va yo‘nalishini prognoz qiladi;

4) *aholini xabardor qilish funksiyasi* – hozirgi vaqtda jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyoti jinoyatchilikni nazariy jihatdan tubdan o‘rganish vazifasini yanada qat’iy qilib qo‘ymoqda. Umuminsoniy qadriyatlar va inson huquqlari asosiy o‘ringa qo‘yilayot-

gan, hozirgi vaqtda to‘siq bo‘layotgan salbiy hodisalarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish bu hodisalarda kelajakda qanday o‘zgarishlar bo‘lishi mumkinligini prognoz qilib, jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarali choralarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Kriminologiya fanining asosiy vazifalari samarali bajarilishini ta’minlash uchun quyidagilar taklif etiladi:

1) huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining ixtisoslashtirilgan statistika hisobotlaridan kriminologik ilmiy tadqiqotlar olib borishda samarali foydalanish mexanizmini yaratish va ilmiy markaz tashkil etish maqsadga muvofiq;

2) kriminologiyaning dolzarb muammolari bo‘yicha samarali ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish borasidagi ilg‘or xalqaro tajriba va chet mamlakatlar amaliyotini hisobga olish;

3) jinoyatchilikka qarshi kurashishning zamonaviy usullariga oid elektron (publistik, yuridik, ilmiy-ommabop) adabiyotlar tarqatishni jadallashtirish. Jumladan, IIV akademiyasi va Toshkent davlat yuridik universiteti hamkorligida internet tarmog‘ida “Kriminologiyaning dolzarb masalalari” nomli xalqaro ilmiy-amaliy elektron jurnalini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu, bir tomondan, mamlakatimiz ilm-fani, xususan, kriminologiya fani yutuqlarining xalqaro miqyosda e’tirof etilishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan, tadqiqotchilarga o‘z ilmiy maqola (tezis) larini nashr ettirishlarida qulayliklar yaratadi.

Mamlakatimiz Prezidentining jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid talablariga muvofiq, kriminologik bilimlar yangilash, rivojlantirish, ularni amaliyotga tatbiq etish kriminologiyaning asosiy vazifasi ekanligidan kelib chiqib, so‘nggi besh yilda qayd etilgan jinoyatlar soni besh barobarga oshganligi *(2019–2023-yillarda respublika bo‘yicha qayd etilgan jinoyatlar soni 2,3 barobarga oshgan. Masalan, 2019-yilda 46 mingta jinoyat qayd etilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 104 mingga yetgan)*, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida maktab o‘quvchilari sonining ko‘payganligi *(2023-yilda voyaga yetmaganlar 3500 ta jinoyat sodir etgan. Shundan 2 280 nafarini maktab o‘quvchilari tashkil qiladi)*, mansabdor shaxslarning jinoyatlari *(2023-yilda 3575 nafar mansabdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan bo‘lib, bu 2022-yilga nisbatan 15 foizga ko‘p*) ham ortganligini e’tiborga olib, ushbu yo‘nalishlarda tadqiqot olib borilishi maqsadga muvofiq.

**Xulosalar**

O‘ylaymizki, yuqorida keltirilgan taklif, tavsiya va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilishi bu boradagi muammolarni hal etishda ijobiy natijalar beradi.

Kriminologiya fani doirasida jinoyatlar profilaktikasiga oid samarali ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar yaratish muhimdir, chunki kriminologiya fani ilmiy-nazariy jihatdan boyitib borilmasa, jinoyatchilikka qarshi kurashishda zarur vazifalarni bajara olmaydigan, rivojlanishdan to‘xtab qolgan fanga aylanib qoladi.

Jumladan, kriminologiya fani bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashishni ta’minlash uchun ilmiy-nazariy tavsiyalar manbayi bo‘lib qolmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, mazkur fan davr talabiga ko‘ra o‘zining yangi rivojlanish bosqichiga o‘tmoqda.

Binobarin, kriminologiya fan sifatida vujudga kelgan davrdan buyon o‘tgan vaqt ichida jamiyat hayotida nafaqat ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, balki shu bilan bog‘liq holda, kishilarning dunyoqarashi, ongida ham yangicha fikrlashlar yuzaga kelganligini ko‘rish mumkin. Tabiiyki, bu holat kriminologiya faniga ham davr talabi asosida yondashishni taqozo etmoqda.

Bu esa kriminologlar tomonidan jamiyat uchun yot bo‘lgan qilmish (jinoyat)ning tor ma’nodagi huquqiy tushuncha emasligi va unga ijtimoiy hamda psixologik tushuncha sifatida ham qarash e’tirof etilganligini ko‘rsatadi. Bu holat insonning qilmishiga yangi ilmiy nuqtayi nazardan yondashish omilini yuzaga keltirdi hamda jinoyatchilik-

ning huquqiy jihatdan belgilangan chegaradan chetga chiquvchi sabab va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar jinoyatchilikka qarshi kurashdagi asosiy yo‘nalish ekanligi va umuman jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi bu yo‘nalishlarning murakkabligi, shu bilan birga, xilma-xil bo‘lishini isbotlash kabi muammolarga yangicha yondashishga e’tibor qaratildi.

Bugungi kunda kriminologiya fanining jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotidagi ahamiyati tobora oshib, fanning ilmiy tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan ilg‘or tajribalar jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida muhim qarorlarga kelishga imkon yaratmoqda.

So‘nggi yillarda jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyoti jinoyatchilikni nazariy jihatdan tubdan o‘rganish orqali ilmiy tashxis qo‘yish yanada dolzarb ahamiyat kasb etgani bois umuminsoniy qadriyatlar va inson huquqlari asosiy o‘ringa qo‘yilayotgan bugungi davrda kriminologiyaning muhim muammosi islohotlar yo‘liga to‘siq bo‘layotgan salbiy hodisalarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish, bu hodisalar samarasi o‘laroq, kelajakda qanday o‘zgarishlar bo‘lishi mumkinligini prognoz qilib, jinoyatchilikka qarshi samarali choralar ishlab chiqishdan iboratdir.

Hozirda mamlakatimizda kriminologik tadqiqotlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–10-son Farmoni bilan kriminologiya bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib boruvchi ilmiy muassasa – Kriminologiya tadqiqotlar instituti tashkil etildi.

Mazkur muassasaning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

respublikada kriminogen vaziyatga oid chuqur tadqiqotlar amalga oshirish, jinoyatchilik tendensiyalarini tizimli ravishda tahlil va prognoz qilish, uning ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, ma’naviy-ma’rifiy, huquqiy, tibbiy va tashkiliy omillarini kompleks ilmiy tashxislash asosida aniqlash;

hududlar kesimida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish choralari samaradorligini ilmiy jihatdan baholash, shuningdek, ilmiy tahlil, prognoz va tashxis xulosalariga asoslangan holda qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish orqali jinoyatchilik omillarini bartaraf etish choralarini ishlab chiqish;

ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish orqali kriminologik faoliyat amaliyotida mavjud muammolarni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan kompleks yechimlar, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

jamoatchilik o‘rtasida shov-shuvga sabab bo‘lgan jinoyatlar omillarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqishda belgilangan tartibda mutaxassis sifatida surishtiruv va dastlabki tergov organlariga uslubiy ko‘maklashish;

jahon kriminologiyasining ilg‘or tajribalarini doimiy o‘rganish hamda uning samarali natijalarini O‘zbekiston Respublikasi sharoitlarida qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

kriminologiya sohasi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilik shaklida oliy malakali ilmiy kadrlar tayyorlash, talabgorlarni belgilangan tartibda ilmiy darajalar va ilmiy unvonlarga taqdim etish.

Respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar, davlat boshqaruvi tizimiga sun’iy intellekt texnologiyalari jadal sur’atlar bilan kirib kelayotgan bir paytda zamonaviy tahdidlardan himoya qilishda kriminologik tadqiqotlar muhim rol o‘ynaydi. Sun’iy intellekt imkoniyatlariga oid umidlar bilan bir qatorda tahdid va xavotirlar ham bor.

Xavotirlarning eng oddiysi uning insonlar ishini tortib olishi va ishsizlikni koʻpaytirishidir. Eng katta tahdid esa sun'iy intellekt hukmron boʻladigan kelajakda insoniyatning yashab qolishi savol ostiga qolayotganligidir. Shu munosabat bilan kriminologiya fani doirasida "Raqamli kriminologiya", "Jinoyatchilikni prognoz qilishda sun'iy intellektning roli", "Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda sun'iy intellektning o'rni" va "Kriminologik faoliyatga sun'iy intellekt va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishda xorijiy davlatlarning ilgʻor tajribalari" kabi mavzularda tadqiqotlar olib borilishiga jiddiy ahamiyat qaratilishi zarur.

## REFERENCES

1. Ismailov I. Kriminologiya fanining shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi holati [Formation, development and current state of the science of criminology]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2014, 57 p.

2. Zaripov Z., Mirzajonov K. Sovremennaya kriminologiya: yeyo sostoyaniye i zadachi [Modern criminology: its state and tasks]. *State and Law,* 2004, vol. 4 (20), p. 39.

3. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya [Criminolog]. M.H. Rustamboyev (Ed.). Tashkent, TSIL Publ., 2008, p. 3.

4. Material from Wikipedia – the free encyclopedia. Available at: https://ru.wikipedia.org/wiki/Topinar._Pol

5. Kriminologiya: Obshchaya chast' [Criminology: General part]. F.K. Zinnurova (Ed.). Kazan, Judicial Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia, 2019, 358 p.

6. Umirzakov B.A. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va oldini olish [Criminological description and prevention of juvenile delinquency]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2020, 90 p.

7. Abdurasulova Q.R., Zakirova A.G., Umirzakov B.A., Qarshiyev Gʻ.S. Kriminologiya: Chizmalar albomi [Criminology: An Album of Drawings]. Q.R. Abdurasulova (Ed.). Tashkent, Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2020, 182 p.

8. Zaripov Z.S., Pulatov Yu.S., Avanesov G.A. et al. Kriminologiya [Criminology]. Z.S. Zaripov (Ed.). Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2006, pp. 37–38.

9. Zakirova O.G. Kriminologiya nazariyasini rivojlantirish va uning dolzarb muammolari [Development of the theory of criminology and its current problems]. *Legal World*, 2024, no. 5, pp. 50–62.

10. Abdurasulova Q.R., Zakirova A.G., Muxitdinov F.M., Aliyev Sh.X., Xoʻjakulov S.B., Umirzakov B.A., Qarshiyev Gʻ.S. et al. Viktimologiya [Victimology]. F.M. Muxitdinov (Ed.). Tashkent, Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2021, 320 p.

11. Karaketov Y.M., Usmonaliyev M.U. Jinoyatchilikka qarshi kurashning kriminologik choralari [Criminological measures of combating crime]. Tashkent, 1995, 229 p.

12. Zaripov Z., Ismoilov I. Kriminologiya. Umumiy qism [Criminology. General part]. Tashkent, 1996, 228 p.

13. Abdurasulova Q.R., Zakirova A.G., Ismailov I. et al. Kriminologiya [Criminology]. Tashkent. Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2023, 318 p.

14. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya fanining hozirgi kundagi dolzarb vazifalari [Current tasks of the science of criminology]. *Legal World,* 2024, no. 4, pp. 40–44.

15. Umirzakov B.A. Kriminologiya fani vujudga kelishining ijtimoiy zarurati va rivojlanish istiqbollari [Social need for the emergence of the science of criminology and development prospects]. *Legal World*, 2024, no. 4, pp. 57–62.